

O`ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA TARQALGAN TUNLAM  
(LEPIDOPTERA, NOCTUIDAE) KAPALAKLARI

Aliyev Zafar Zokirovich

Mirzo Ulug`bek nomidagi

O`zbekiston Milliy Universiteti magistri, O`zbekiston, Toshkent

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada O`zbekistonning janubiy hududlari bo`lgan Surxondaryo viloyatida uchraydigan tunlam kapalaklari faunasi va ularning morfologik belgilari xamda *Saragossa siccanorum* (Staudinger, 1870), *Mythimna (Hyphilare) ferrago* (Fabricius, 1787), *Mythimna (s. str.) vitellina* (Hubner, [1808]), *Margelana versicolor* Staudinger, 1888, *Euxoa (s.str.) conspicua* (Hubner, [1824]), *Agrotis (Lycophorus) lasserrei* (Oberthur, 1881), *Barathra brassicae* turlarini keng tarqalganligi to`g`risida ma`lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** В данной работе фауна бабочек и их морфологические особенности обнаружены в южных районах Узбекистана Сурхандарьинской области, а также *Saragossa siccanorum* (Staudinger, 1870), *Mythimna (Hyphilare) ferrago* (Fabricius, 1787), *Mythimna (p. Str.) Vitellina* (Hubner, [1808]), *Margelana versicolor* Staudinger, 1888, *Euxoa (s.str.) Conspicua* (Hubner, [1824]), *Agrotis (Lycophorus) lasserrei* (Oberthur, 1881) и *Barathra brassicae*.

**Abstract:** In this paper, the fauna of butterflies and their morphological features found in the southern regions of Uzbekistan Surkhandarya, as well as *Saragossa siccanorum* (Staudinger, 1870), *Mythimna (Hyphilare) ferrago* (Fabricius, 1787), *Mythimna (p. Str.) Vitellina* (Hubner, [1808]), *Margelana versicolor* Staudinger, 1888, *Euxoa (s.str.) Conspicua* (Hubner, [1824]), *Agrotis (Lycophorus) lasserrei* (Oberthur, 1881), and *Barathra brassicae*.

**Kalit so`zlar:** surxondaryo, ozuqa, noctuidae, lepidoptera, , metodikalari, kordinata.

**Ключевые слова:** сурхандарья, корм, совки, чешуекрылые, методы, координаты.

**Keywords:** surkhandarya, feed, noctuidae, lepidoptera,, methods, coordinates.

**Mavzuning dolzarbligi.** Tunlamlar, tungi kapalaklar (Noctuidae) – tangachaqanotlilar turkumiga mansub hasharotlar oilasi. 30 mingga yaqin turi ma`lum. Kapalaklari o`rtacha va mayda (3–5 sm), koramtir, oldingi qanotlarida bir xil naqshi bor, qorni tuklar bilan qoplangan. Kapalaklarning og`iz apparati so`ruvchi, qurtlariniki kemiruvchi tipda. Qurtlarining ko`pchiligi yalang`och, g`umbagi qizg`ish jigarrang yoki qo`ng`ir. Kapalaklari gul va daraxt shirasi bilan oziqlanadi. Yangi qo`ygan tuxumi sarg`imtir oqish. Qurtlarida 3 juft ko`krak oyog`ining birinchi bo`g`imida va 10 juft qorin oyog`ining 1–8 bo`g`imida nafas olish teshigi joylashgan. Tunlamlar asosan, tunda faol hayot kechiradi. O`simlik qoldiqlari yoki tuproqqa 300 tagacha tuxum qo`yadi. Ba`zi Tunlam qurtlari tuproqda yashab, o`simlik ildizlari yoki poyasining ildiz bo`g`izlarini kemiradi (mas., ko`k qurt tunlami, undov tunlami). Ayrimlari o`simlik bargi, shonasi, guli, ko`sagiga zarar yetkazadi (., karadrina, ko`sak qurti, beda tunlami va boshqalar).

**Dolzarbligi.** Tunlamlar imogasi qishloq xo'jaligiga ziyon yetkazmagandek ko'rinadi, ammo lichinkasi(qurti) yashil o'simliklarning kushandasi hisoblanadi.

**Ish uslubi.** Tajriba va kuzatuvlar O'zbekiston Milliy universiteti biologiya fakulteti zoologiya kafedrasida hamda Surxondaryo viloyati Denov tumani g'oz va bug'doy agrotsenozida olib borildi.

Tunlamlarni tutish va ularning biologiyasini o'rganish uchun turli usullardan foydalanildi.

Tunlamlarning turlari va fenologiyasini aniqlash uchun ularni doimiy ravishda tutib borish va analiz qilish zarur. Shu vaqtgacha o'rganilgan to'tish usullaridan eng foydalisi bu turli tutqichlardir. Masalan, feromon tutqichlar, yorug'lik tutqichlari, achitqi tutqichlari va hakoza.

Yorug'lik tutqichlari asosan atrofi ekinzor bo'lgan joyga o'rnatiladi. Yorug'lik tutqichlarining qiziq tomoni shundaki, har qanday tunda aktiv bo'lgan hasharot yorug'likni ko'rgach, shu yorug'lik tomon uchib keladi. Agar yorug'lik yonida oq ekran yoki oq devor bo'lsa, shu yerga kelib qo'nadi. Hasharotlarning yorug'likka reaksiyasi turlicha, lekin yorug'lik to'lqin uzunligi qancha qisqa bo'lsa, uning hasharotlarni jalb etish kuchi shuncha yuqori bo'ladi. Ayniqsa, hasharotlar ultrabinafsha, binafsha va ko'k nurlarga juda sezgir bo'ladilar, uning atrofiga yig'iladilar.

To'lin oy kechalari hasharotlarning yorug'likka kelishi kamayadi. Bunga asosiy sabablar quyidagilar: kunduz kuni ham, kechqurun ham to'lqin uzunligi qisqa nurlari, ayniqsa ultrabinafsha nuri ochiq joylarda xarakterlidir.

Kunduzi qisqa to'lqinli yorug'lik manbai quyosh bo'lsa, kechqurungi manbai bo'lib oy xizmat qiladi. Shuning uchun tungi vaqt ultrabinafsha, oq chiroq hasharotlarni o'ziga ko'proq jalb etadi. Qorong'i tushishdan boshlab, har uch kunda kuzatish olib borildi, uchib kelayotgan hasharotlar kuzatib turildi.

Tunlam kapalaklarni ovlashda ularni o'ziga xos belgisini e'tiborga olish kerak. Kechqurun chiroq tutqichlariga kelgan tunlam kapalaklardan tashqari boshqa tungi xayot kechiruvchi kapalaklarning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, u biror yerga qo'nganda qanotlarini boshqa tomonga qanotlilar singari yig'ib olmaydi, balki yoyib turadi. Uning qanotidagi butun tasvirlar kurinib turadi [ 27].

Biz materiallarni 2022 yil aprel va may oylarida yig'dik. Elektr yoritqich tutqichlarni soat 21<sup>00</sup> dan 23<sup>00</sup> gacha yoqib qo'yib material yig'dik. Yorug'likka uchib kelgan tunlamlarni oq ekranga qo'ngandan so'ng entomologik probirka yordamida 1 litrlik bankaga yig'dik. Ertasiga yig'ilgan kapalaklarni maxsus konvertlarga solib qayerdan va qachon ushlanganligini yozib bordik. Kam uchraydigan va chiroyli ekzemplarlaridan kolleksiyalar tayyorlab borildi.

Yig'ilgan tunlam kapalaklarining tur tarkibi O'zbekiston Milliy universiteti biologiya fakulteti zoologiya kafedrasida E. Gofman va N. Xolodkovskiylarning "Kapalaklar atlas" hamda O.I. Merjeyevskayaning 1967 yil va 1971 - yilda chiqazgan aniqlagichlaridan foydalanib ilmiy raxbarim b.f.d. dotsent M.Sh. Raximov boshchiligida aniqlandi [24 ].

Olingan natijalar va ularning tahlili.Tunlamlar Surxondaryo viloyati shariotida aprel oyining ikkinchi yarmidan boshlab g`umbakdan chiqishini kuzatdik. Aprel oyining ikkinchi yarmida havo harorati kunduzi 29°C va kechki harorat 23°C atrofida tunlam kapalaklari

g`umbakdan chiqa boshlaydi. 29.05.2022 yil kechki vaqt oq ekran tuzuq metodi yordamida 6 ta tunlam kapalagi konvertlandi.

30-mayda havo harorati 17°C atrofida; tunlamlar chiqishi kuzatilmadi.

1-may havo harorati kechki vaqt 33°C va tunda 24°C tunlamlar tuzoqdan tunlam yig`ib olindi.

2-may havo harorati kechki vaqt 25°C va tunda 23°C; tuzoqdan 13 ta tunlam yig`ib olindi.

3-may havo harorati kechki vaqt 23°C va tunda 20 °C atrofida tuzoqdan 8 ta tunlam yig`ib olindi.

4.05.2020. Oltinsoy tumani Gulchechak mahallasi.Havo harorati +17 C°

Kuchli yomg`irdan so`ngi holat. Tunlam kapalaklari uchramadi.

Jadval-1

T/r	Tunlamlarning lotincha nomi	Uchrash joyi	Oq ekran tuzog`i atrofidagi o`simliklar
1.	Saragossa(s.l.) siccanorum (Staudinger, 1870), , Barathra brassicae	38.244365, 67.881127 38.232923, 67.885927 30.015487, 67.801698	Pamidor,bodring, kartoshka mevali daraxtlar
2.	Mythimna(Hyphilare) ferrago (Fabricius, 1787),	38.244365, 67.881127 38.232923, 67.885927 30.015487, 67.801698	Piyoz, bug`doy, g`o`za, kartoshka
3.	Mythimna(s. str.) vitellina (Hubner, [1808]),	38.244365, 67.881127 38.232923, 67.885927 30.015487, 67.801698	Piyoz, bug`doy, g`o`za, kartoshka
4.	Margelana versicolor Staudinger, 1888	38.244365, 67.881127 30.015487, 67.801698	Piyoz, bug`doy, g`o`za, kartoshka
5.	Euxoa (s.str.) conspicua (Hubner, [1824])	38.232923, 67.885927 30.015487, 67.801698	Pamidor,bodring, kartoshka mevali daraxtlar
6.	Agrotis(Lycophorus) lasserrei (Oberthur, 1881),	38.244365, 67.881127 38.232923, 67.885927	Pamidor,bodring, kartoshka mevali daraxtlar

Shulardan g`o`za tunlami, ko`sak qurti— tunlamlar oilasiga mansub kapalak. Paxta ekiladigan mamlakatlarda tarqalgan. G`o`za tunlamining qurti 120 dan ortiq o`simlik turini zararlaydi, ayniqsa, Tojikiston, O`zbekiston va Ozarbayjonda katta zarar yetkazadi. Qanotlari yoyilganda 30–40 mm; oldingi qanoti kulrang sariq, buyraksimon, yumaloq dog`li, orqa qanoti sarg`imtiroq, qo`ng`ir hoshiya-li, o`rtasida to`q rangli oysimon dog`lari bor. Erkagi urg`ochisiga nisbatan ochiqroq rangda. Tuxumi och sarg`ish, o`ziga xos radial "qobirg`alari" bor. Qurtining rangi och yashildan to qiz-g`ish-qo`ng`irgacha, uz. 35–40 mm; boshi sariq, ko`krak qalqoni marmarsimon naqshli. Tanasi bo`ylab uchta keng yo`l o`tadi, qorni oqish. G`umbagi qizg`ish-jigarrang , uz. 15–20 mm. G`o`za tunlamining gum-bagi tuproqda 10–15 sm chuqurlikda qishlaydi. Havo harorati o`rtacha 18– 20°C bo`lganda gumbakdan kapalaklar yoppasiga uchib chiqa boshlaydi. O`rta Osiyoda birinchi avlod kapalaklarining uchib chiqishi 1 –1,5 oy (apr.may) davom etadi. G`o`za tunlami g`o`zaga shonalash boshlanganda o`ta boshlaydi, ungacha birinchi bo`g`in pomidor, no`xat, makkajo`xori va begona o`tlar (bangidevona, g`o`zor)da rivojlanadi. Kapalaklar o`simlik bargi va hosil organlariga 1–3 tadan

tuxum qo'yadi. Bitta urg'ochi kapalak o'rtacha 500, ba'zan esa 1000 gacha tuxum qo'yishi mumkin. Yoz oylarida bir avlodning rivojlanishi uchun 25–35 kun kifoya. O'rta Osiyoda 3–4 avlod beradi. Yosh barglar, shona va g'unchalarni, yosh ko'saklarni yeydi (ikkinchi nomi ham shundan). Bitta qurt 10–24 hosil elementiga zarar yetkazishi mumkin.

Tunlamlarning zarari agar birinchi rivojlanish siklida kerakli chora ko`rilsa 15% , agar ikkinchi rivojlanish siklida ham agranom sezmasa hosildorlik 30-40% gacha pasayib ketishi aniqlangan.

Xulosa: Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida O'zbekistonning janubiy vohasi Surxondaryo viloyatida olib borilgan tadqiqot natijasida 3 ta yangi tur aniqlandi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Муминов Б.А. Некоторое сведение по фауне совков (Noctuidae) Ташкенцкой вилояти. Узб.биол.журнал. Ташкент. 1979. №3. –С. 62-64.

2. Бекчанов Х.У. Совки (Noctuidae, Lepidoptera) природных ландшафтов Хорезмского оазиса (фауна, биология, экология). Автореф. дис.... канд. биол.наук. Т.: 1998. -24 с.

3. Муминов Б.А. Рахимов М.Ш. «Сарик чизиқли тунлам (Мйтҳимнавителина)ни ривожланишини ўрганиш».ТошДу ёш олимлари ва талабалари илмий мақолалар тўплами. Ташкент. 1997. №1. - Б. 80-83

4. Рахимов М.Ш. Совки (сем.Noctuidae) антропогенных ландшафтов Хорезмского оазиса (фауна, биология, экология). Автореферат дисс.канд.биол.наук.Ташкент. 1997 г. -21 с.

5. [https://t.me/noctuidae\\_uz](https://t.me/noctuidae_uz)